QASHQADARYO VILOYATI MUBORAK TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 24-iyun | 241-4-64-Q/25 | Muborak tuman hokimligi

Muborak tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish yuzasidan tumandagi umumta’lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to‘g‘risida

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida”gi Nizomning 39-bandiga asosan tumanda maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga qamrab olish jarayonida umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud)ni aniq belgilab olish maqsadida, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 27-moddasi hamda O’zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Muborak tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish bo‘yicha umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud) ro‘yxati ilovaga asosan tasdiqlansin.

2. Tuman hokimligi (N.Abdunazarov), tuman maktabgacha ca maktab ta’limi bo‘limi mudiri (U.Daminov)ga tumandagi umumta’lim muassasalari rahbarlari zimmasiga maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish, o‘quvchilarning darslarga qatnashish holati yuzasidan monitoring olib borish va uning natijasida aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha zarur choralar ko‘rish topshirilsin.

3. Tumandagi umumta’lim muassasalari rahbarlari o‘zlari rahbarlik qilayotgan muassasaga biriktirilgan hududdagi maktab yoshidagi bolalarni o‘z vaqtida umumta’lim muassasasiga o‘qishga jalb qilish uchun mas’ul etib belgilansin.

4. Mazkur qaror tuman hokimlikning muborakt.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Mazkur qaror qabul qilinishi bilan Muborak tuman hokimining 2024-yil 19-iyun kunidagi “Muborak tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish yuzasidan tumandagi umumta’lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to‘g‘risida”gi № 226-4-64-Q/24-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari N.Abdunazarov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Murodov G.N**

Muborak tumani hokimining
2025-yil 24-iyundagi
241-4-64-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Muborak tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish bo‘yicha umum ta’lim muassasalariga

RO’YXATI

№	Umumta’lim muassasasi tartib raqami	Umumta’lim muassasasi joylashgan manzili	Umumta’lim muassasasiga biriktirilgan hudud (MFY yoki ko’chasi)
1.	1-maktab	Konchilar MFY	Konchilar, Yoshlik va Tong MFYlari hududidagi barcha xonadonlar
2.	2-maktab	O’zbekiston MFY	O‘zbekiston MFY dagi Buxoro , O’zbekiston, O’zbekiston-1, Zanjirsaroy, A.Qahhor, Yangiobod, Neftrazvetka, A.Abdiyev
3.	3-maktab	Do‘stlik MFY	Do‘stlik, Bobur MFYlari hududidagi barcha xonadonlar hamda 5-m/t, 6-m/t hududidagi barcha xonadonlar
4.	4-maktab	Quruvchilar MFY	Quruvchilar MFY hududidagi barcha xonadonlar
5.	5-maktab	Mash’l MFY	Mash’al va A.Navoiy MFYlari hududidagi barcha xonadonlar
6.	6-maktab	Qora qum MFY	Qora qum MFY hududidagi barcha xonadonlar
7.	7-maktab	Obod turmush MFY	Obod turmush MFY Xitoy qishlog‘ida barcha xonadonlar
8.	8-maktab	Yashnabod MFY	Yashnaobod MFY hududidagi Choriyetim ko‘chasi, NurchilarvaYangiobod ko‘chalaridagi barcha xona donlar.
9.	9-maktab	Bo‘stonMFY	Bo‘ston va Yangiobod MFYlari hududi, charxpalak bekati-Sardoba MFYga boruvchi yo‘ldan chap tomondagi Karimov Karim Savdo do‘konigacha bo‘lgan barcha xonadonlar
10	10-maktab	Qarliq MFY	Qarliq va Yangiobod MFY xonadonlari
11	11-maktab	Sardoba MFY	Sardoba MFY hududidagi barcha xonadonlar

12	12-maktab	Yangiobod MFY	Yangiobod MFY hududidagi Qarliq ,Yangiobod , Barkamol avlod, Qirqyigit,Qozoqcha,Turkman,Toshbobo, Islomota, Navro‘z, Mustafo ota ,Sobirov Toshpirim ko‘chalaridagi barcha xonadonlar
13	13-maktab	Paxtakor MFY	Paxtakor va Barkamol avlod MFY hududidagi barcha xonadonlar
14	14-maktab	A.Temur MFY	Bozor ko‘chasi , Surxon ko‘chasi, Navro‘z ko‘chasi, Do‘slik ko‘chasi, Shabnam ko‘chasi, Chamanzor ko‘chasidagi barcha xonadonlar.
15	15-maktab	Sariq MFY	SariqMFY hududidagi Xo‘jamuborak qishlog‘ining barcha xonadonlar.
16	16-maktab	Sariq MFY	Sariq MFY hududidagi Sariq qishlog‘ining barcha xonadonlari
17	17-maktab	A.Temur MFY	A.Temur MFY hududidagi Yangi hayot qishlog‘ining barcha xonadonlar
18	18-maktab	A.Temur MFY	A.Temur MFY hududidagi Yangiyer qishlog‘ining barcha xonadonlar
19	19-maktab	Muborak MFY	Muborak MFY hududidagi Niyozxon qishlog‘ining barcha xonadonlar
20	20-maktab	Muborak MFY	Muborak MFY hududidagi Shirinbuloq qishlog‘ining barcha xonadonlar
21	21-maktab	Sariq MFY	Sariq MFY hududidagi Shayx qishlog‘iniing barcha xonadonlar
22	22-maktab	Ko‘hna shahar MFY	Ko‘hna shahar MFY hududidagi Ko‘hnashahar qishlog‘ining barcha xonadonlar.
23	23-maktab	Sariq MFY	Sariq MFY hududidagi Qorabog‘ qishlog‘ining barcha xonadonlar
24	24-maktab	Muborak MFY	Muborak MFY hududidagi Hayit Hoji Oqmamatov nomli aholi punkitining barcha xonadonlar
25	25-maktab	Muborak MFY	Muborak MFY hududidagi Turkman qishlog‘ining barchaxonadonlar
26	26-maktab	Istiqlol MFY	Istiqlol MFY hududidagi Zarbuloq Qishlog‘ining barcha xonadonlar.
27	27-maktab	Istiqlol MFY	Istiqlol MFY hududidagi G’allakor qishlog‘ining barcha xonadonlar.
28	28-maktab	O‘zbekiston MFY	O‘zbekiston MFY hududidagi Neft razvetka, Buxoro, A.Qodiriy, Chamanzor, Guliston, Vogzaloldi. O’zbekiston-2, Andijon ko‘chalaridagi

			barcha xonadonlar.
29	29-maktab	Obod turmush MFY	Obod Turmush MFY dagi barcha xonadonlar va Qora qum MFYlari hududi yoshlar ko’chasidagi xonadonlar
30	30-maktab	Bo‘ston MFY	Bo‘ston va Yangiobod MFY lari hududidagi paxta qabul qilish punkti ro‘parasidagi yo‘ldan o‘ng tomondagi barcha ko‘chalar
31	31-maktab	Bo‘ston MFY	Bo‘ston vaYangiobod MFY hududidag iCharxpalak bekati-Sardoba yo‘nalishi bo‘yicha boruvchi yo‘lning o‘ng tomonidan paxta qabul qilish punkti ro‘parasidagi yo‘lgacha va Karimov Karim savdo do‘konidan Jumayev Rahmat xonadonigacha bo‘lgan yo‘lningo‘ng tomonidagi barcha ko‘chalardagi xonadonlar
32	32-maktab	Qarliq MFY	Qarliq MFY hududidagi Bo‘la qobul, Havash ko‘chalari
33	33-maktab	Barkamol avlod MFY	Barkamol avlod va Paxtakor MFYlari hududidagi xonadonlar
34	34-maktab	Istiqlol MFY	Istiqlol MFY yangi qaraqum masividagi barcha xonadonlar
35	35-maktab	Qora qum MFY	Qora qum MFY hududidagi Namunali uylardagi barcha xonadonlar, Yangi ariq qishlog‘idagi xonadonlar, Yoshlar ko’chasi A-380 yo‘l yoqasidagi xonadonlar